

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
DAVOLASH FAKULTETI
ASAB KASALLIKLARI KAFEDRASI**

**5A 510116 «Tibbiy psixologiya» mutaxassisligidan magistrnlarni
tayyorlash uchun
«Umumiy tibbiyot psixologiyasi» fanidan
ISHCHI O'QUV DASTUR**

TOSHKENT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

DAVOLASH FAKULTETI

ASAB KASALLIKLARI KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»

Ilmiy ishlari bo'yicha prorektor
Azizova F.L. _____

«_____» _____ 2019 yil

5A 510116 «Tibbiy psixologiya» mutaxassisligidan magistrnlarni

tayyorlash uchun

«Umumiy tibbiyot psixologiyasi» fanidan

ISHCHI O'QUV DASTUR

Bilim sohasi: 500000 – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot

Ta'lim sohasi: 510000 – Sog'liqni saqlash

Ta'lim yo'nalishi: 5510100 – Davolash ishi

Mutaxassislik: 5A 510116 – Tibbiy psixologiya

Toshkent - 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

1. **Ibodullayev Z.R.** - t.f.d., professor
2. **Djalilova S.Kh.** - kafedra assistenti
3. **Maxamatjanova N.M.** – kafedra assistenti

Taqrizchilar:

1. **Ashurov Z.Sh.** – Toshkent tibbiyot akademiyasi psixiyatriya va narkologiya kafedrasini mudiri, t.f.n, dotsent.
2. **Imamov A.A.** - Magistratura bo'limi boshlig'i.

KIRISH

Psixogen va psixosomatik kasalliklar eng ko'p tarqalgan kasalliklar sirasiga kiradi. Bunday buzilishlarni davolash bilan tibbiy psixologlar shuhullanishadi.

Terapevtik yo'nalishdagi barcha kasalliklarning deyarli 70 % psixosomatik buzilishlarni tashkil etadi va ularni o'rganish bilan tibbiy (klinik) psixologlar shug'ullanishadi. Shuningdek organik kasalliklarda kuzatiladigan funksional buzilishlarni ham tibbiy psixologiya o'rganadi. Bu esa davolash-profilaktika muassasalarida tibbiy psixologlar yordamidan keng foydalanishni taqozo etadi. Shu bois barcha rivojlangan davlatlarda tibbiy psixologlar yordamidan keng foydalanish yo'lga qo'yilgan. Bu davlatlarda har bir davolash maskanida tibbiy psixolog faoliyat ko'rsatadi.

Tibbiy psixolog (vrach-psixoterapevt, vrach-neyropsixolog, vrach-psixonevrolog) barcha zarur diagnostik tekshiruvlarni, yani KT, MRT, dupleks, EEG, UTT, EKG, laborator tekshiruvlarni mustaqil ravishda tavsiya etadi hamda psixodiagnostika va psixoterapiya usullarini qo'llaydi.

O'quv rejasiga binoan "Tibbiy psixologiya" mutaxassisligi bo'yicha magistraturada 3 yillik kunduzgi o'quv shakli ko'rib chiqilgan. Amaliy mashg'ulotlar uchun 1398 soat ajratilgan, ilmiy-amaliy ish (magistrlik amaliyoti) va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash 2835 soat, malakaviy amaliyot uchun 648 soat, Ilmiy-pedagogik ish uchun 567 soat (hammasi 118 hafta). Umumiy tibbiyot psixologiyasiga 498 soat ajratilgan.

Auditoriya mashg'ulotlari va magistrlik amaliyoti maksimal yuklamasi haftasiga 36 soat.

Mashg'ulotlar asab kasalliklari kafedrasida, ruhiy kasalliklar kafedrasida, psixonevrologik dispanserlarda, terapeviya bo'limlarida, konsultativ poliklinikalarda hamda O'zbekiston Respublikasining barcha ilmiy-tibbiy markazlarida, xususiy klinikalarda, psixologiya va psixoterapiya markazlarida olib boriladi.

Mutaxassislik bo'yicha nazariy o'qitish seminar mashg'ulotlari tarzida o'tkazilib, 2 ta tematik bo'limdan (umumiy tibbiyot psixologiyasi, xususiy tibbiyot psixologiyasi). tashkil topgan. Ushchi o'quv dasturining "Umumiy tibbiyot psixologiyasi" qismida magistrlik miya va ruhiyat shakllanishining psixofiziologik bosqichlari, sezgi va idrok, diqqat va xotira, nutq va tafakkur, ong, shaxs, temperament, xarakter, hissiyot va stress xaqidagi zamonaviy bilimlarni rivojlantirishadi, psixogigiyena, psixoprofilaktika, psixoanaliz, gipnoz, geshtalterapiya, bixeviorizm va shular kabi psixodiagnostik va psixoterapevtik usullarni qo'llash texnikasining umumiy asoslarini o'zlashtirishadi. Magistrlik shuningdek tibbiy psixologiyada funksional diagnostika usullari, psixofarmakoterapiyaning asosiy tamoyillarini o'zlashtirishadi va

bilimlarini rivojlantirishadi.

Amaliy o'qitish (magistrlik amaliyoti) klinikalarning diagnostik va terapevtik yo'nalishdagi bo'limlarida o'tkazilib, bu erda magistrlar har bir rotatsiyaga tegishli amaliy ko'nikmalar ro'yxatiga ko'ra bemorlarni kuratsiya qiladilar, qo'shimcha tekshirishlar natijalarini mustaqil interpretatsiya qiladilar, psixodiagnostika, psixoterapiya va tibbiy-psixologik yordam muolajalarini amalga oshiradilar.

1.1. O'qitishning maqsadi

Tibbiy psixologiya mutaxassisligidan magistraturada o'qitishning maqsadi mutaxassis sifatida sertifikat va keyinchalik litsenziyaga mos zamonaviy tibbiy amaliyotga zarur hajmdagi bilimga, mahoratga va amaliy ko'nikmaga ega bo'lgan yuqori malakali tibbiy psixologlarni tayyorlash.

1.2. O'qitishning vazifalari:

- tibbiyot psixologiyasining tibbiy fanlar ichida va sog'liqni saqlash tizimida tutgan o'rni, aholi ruhiy sa'lomatligini saqlashda tibbiy-psixologik xizmatning ahamiyati xaqida zamonaviy bilimlarni shakllantirish;
- miya va ruhiy jarayonlar, analizatorlar, miyaning funksiyonal bloklari, markaziy nerv sistemasining filo-va ontogenezi, xaqida zamonaviy bilimlarni rivojlantirish;
- ruhiyat shakllanishi va psixofiziologik rivojlanishning asosiy bosqichlari xaqida zamonaviy bilimlarni takomillashtirish;
- tibbiy psixologiyada bilish jarayonlari, ya'ni sezgi va idrok, diqqat va xotira, nutq va tafakkur, ong haqidagi zamonaviy bilimlarni rivojlantirish;
- shaxs, temperament, xarakter, hissiyot va stress xaqidagi zamonaviy bilimlarni takomillashtirish va rivojlantirish;
- psixogigiyena va psixoprofilaktika xaqidagi zamonaviy bilimlarni rivojlantirish;
- psixoanaliz va psixodinamik terapiya xaqidagi bilimlarni shakllantirish;
- geshtaltpsixologiya, bixeviyorizm xaqidagi bilimlarni shakllantirish;
- psixologik suhbat o'tkazish qonun-qoidalari va psixologik testlardan foydalanishning umumiy usullari xaqidagi bilimlarni shakllantirish va takomillashtirish;
- psixoterapiyaning umumiy qonun-qoidalari xaqidagi bilimlarni shakllantirish va takomillashtirish;
- gipnoz texnikasini o'zlashtirish va gipnoterapiya usullarini o'rganish;
- tibbiy psixologiyada funksional diagnostika usullari, ya'ni EKG, EEG, rentgen, MRT, dupleks, UTT va laborator tekshiruvlar xaqidagi bilimlarni shakllantirish va takomillashtirish;
- neyropsixologik sindromlarning shakllanish mexanizmlari, topografiyasi, diagnostikasi va neyropsixologik tekshirish hamda neyropsixologik testlardan foydalanish usullari xaqidagi bilimlarni shakllantirish va rivojlantitish.

1.3. Fan bo'yicha magistrning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

«Umumiy tibbiyot psixologiyasi» fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistr:

- O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash organlarining tibbiy-psixologik xizmatiga tegishli buyruq va normativ hujjatlar haqida;
- tibbiy psixologiyaning dolzarb muammolari va tibbiy-psixologik yordamning ustuvor yo'nalishlari, aholi orasida psixogen va psixosomatik buzilishlarni aniqlashda yangi texnologiyalar haqida;
- umumiy tibbiyot psixologiyasining asosiy tamoyillari, psixogigiyena va psixoprofilaktikaga oid zamonaviy yondashuvlar haqida;
- oliy ruhiy funksiyalar va zamonaviy neyropsixologiyaning tibbiyotda tutgan o'rni haqida;
- umumiy tibbiyot psixologiyasida kompyuter texnologiyalarining o'rni, asosiy elementlari, Internet vositalari, axborotlar qidirish, ma'lumotlarni saqlash haqida;

- umumiy psixoterapiyaning asosiy yo'nalishlari, ya'ni ratsional psixoterapiya, kognitiv psixoterapiya, psixodinamik terapiya, geshtaltterapiya, bixeviorizm, gipnoterapiya asosiy tamoillari haqida;
- operatsion tizimlar, elektron pochta, anjumanlar va taqdimotlarni tashkillashtirish haqida ***bilishi kerak***;
- bemorlar bilan psixologik suhbatlar o'tkazish, sezgi va idrok, diqqat va xotira, nutq va tafakkur, ong, hissiyot va stress buzilishlarini tekshira olish;
- qo'shimcha, ya'ni EEG, EKG, MRT, UTT, rentgen, dupleks va laborator tekshirish natijalari interpretatsiya qila olish;
- nevrologik va neyropsixologik tekshiruvlarni o'tkaza olish va neyropsixologik testlarni qo'llay olish;
- har qanday toyifadagi bemorlarga psixoreabilitatsiya tadbirlarini o'tkaza olish, tibbiy hujjatlarni yuritish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***;
- umumiy tibbiyot psixologiyasi doirasida o'tkaziladigan zamonaviy psixodiyagnostika usullari va asosiy psixologik testlarni qo'llash;
- psixogen buzilishlarga olib keluvchi xatarli omillarni izlab topish, psixogigiyena va psixoprofilaktika tadbirlarini o'tkaza olish, shaxs va temperament tiplari hamda insonning xarakterologik hususiyatlarini aniqlay olish ***malakalariga ega bo'lishi kerak***.

1.4. Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

- o'rganiladigan adabiyotlarni konspekt qilish;
- seminar mashg'ulotlarning dolzarb mavzulari bo'yicha anjumanlarda ishtirok etish uchun ma'ruzalar tayyorlash;
- seminar mashg'ulotlarni dolzarb mavzulari bo'yicha jadvallar, grafiklar va diagrammalar tuzish;
- seminar mashg'ulotlar paytida muammoli masalalarni yechish;
- seminar mashg'ulotlar uchun prezentatsiyalar tayyorlash va uni taqdim etish.

1.5. Magistrlik amaliyotiga bo'lgan talablar

- sezgi va idrok, diqqat va xotira, nutq va tafakkur, ong, hissiyot, shaxs, temperament va xarakter tiplarini psixologik suhbatlar orqali va psixologik testlar yordamida yuqori darajada tekshira olish;
- aholi orasida va sog'liqni saqlash tizimiga qarashli maskanlarda psixogigiyena va psixoprofilaktika tadbirlarini yuqori darajada o'tkaza olish;
- ratsional psixoterapiya, kognitiv psixoterapiya, psixodinamik terapiya, geshtaltterapiya, bixeviorizm va gipnoterapiya usullarini qo'llay olish;
- qo'shimcha tekshiruvlar, ya'ni EEG, EKG, MRT, UTT, rentgen, dupleks va laborator tekshirish natijalari interpretatsiya qila olish;
- nevrologik va neyropsixologik tekshiruvlarni o'tkaza olish va neyropsixologik testlarni yuqori darajada qo'llay olish;
- klinik, pata'logoanatomik anjumanlarda va klinik tahlillarda ishtirok etish;
- tematik kasallarni tahlil qilish;
- mutaxassis konsultantlar ko'ruvlarida va psixodiagnostik va psixoterapevtik muolajalarda ishtirok etish;
- ambulator kartalar, kasallik tarixnomasi, statistik ta'lonlar va boshqa tibbiy-psixologik hujjatlarni to'ldirish;
- har kunlik protokollarni magistrning mustaqil ishtiroki qismi bilan to'ldirish;

1.6. Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarining klinik va terapevtik kafedralarida umumiy amaliyot vrachlarini tayyorlash dasturiga ko'ra "Tibbiy psixologiya" mutaxassisligi bo'yicha magistraturada o'qitish davomida orttirilgan bilim va mahoratga asoslanadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Normal anatomiya (markaziy nerv sistemasi tuzilishi, nerv sistemasining filo- va ontogenezi)

2. Normal fiziologiya (markaziy neyronlar fiziologiyasi, MNS va somatovitseral munosabatlar, analizatorlar, bosh miyada kechuvchi neyrofiziologik jarayonlar, sinapslarda neurotransmitterlar faoliyati)

3. Patologik anatomiya va gistologiya (nevrologik va neyropsixologik kasalliklarda kasallikning makro- va mikroskopik substrati)

4. Patologik fiziologiya (psixogen va psixosomatik kasalliklarning neuro- va psixofiziologik mexanizmlari, psixogeniyalarda dominanta tamoyili, psixotrop dorilarning markaziy nerv sistemasi va ruhiyatga ta'siri).

5. Bioximiya (psixogen va psixosomatik kasalliklarning neyrokimyoviy mexanizmlari).

6. Mikrobiologiya (infektsion kasalliklarda etiologik agentining mikrobiologik va biokimyoviy tavsifi, ularni aniqlash usullari va qo'zg'atuvchiga qarshi optimal davolashni tanlash usullari)

7. Ichki kasalliklar propedeutikasi (bemorlarni so'rab-surishtirish, tekshirishning fizikal usullari, klinik va funksiyonal sindromlarni farqlash usullari, fobiya va yatropatiyalar).

8. Ichki kasalliklar (ichki a'zolarining funktsiyonal va organik tipdagi kasalliklari, ularning etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinik ko'rinishlari, asoratlari, diagnostikasi, differentsial diagnostikasi, kompleks davosi, rehabilitatsiya va profilaktikasi, fobiya va yatropatiyalar).

9. Xirurgik kasalliklar (xirurgik kasalliklarda bemorlar psixologiyasi, neyroxirurgiya amaliyotida neyropsixologik sindromlar diagnostikasi, fobiya va yatropatiyalar) .

10. Anesteziologiya va reanimatologiya (organik va psixogen tipdagi komalar, o'tkir stress va urgent holatlarda tez tibbiy-psixologik yordam ko'rsatish tadbirlari, fobiya va yatropatiyalar) .

11. Infektsion kasalliklar (diagnostik mezonlari va ko'p uchrovchi infektsion kasalliklarni davolash tamoyillari, infeksiya bilan bog'liq fobiyalar, neyrorespirator buzilishlar, fobiya va yatropatiyalar).

12. Ftiziatriya (sil kasalligida bemorlar psixologiyasi, ushbu kasallir bilan bog'liq fobiyalar, yatropatiyalar)

13. Endokrinologiya (endokrinologik kasalliklarda bemorlar psixologiyasi, asab va ruhiyat buzilishlari bilan bog'liq endokrin kasalliklar, fobiya va yatropatiyalar)

14. Klinik allergologiya (allergologik kasalliklarda bemorlar psixologiyasi, psixogen astmalar va boshqa tipdagi psevdos allergik sindromlar, fobiya va yatropatiyalar)

15. Oftalmologiya (oftalmologiya amaliyotida bemorlar psixologiyasi, psixogen tipdagi amavroz va ambliyopiyalar, fobiya va yatropatiyalar)

16. Dermatovenerologiya (teri-tanosil kasalliklarida bemorlar psixologiyasi, psevdodermatologik sindromlar, fobiya va yatropatiyalar)

17. Gematologiya (gematologiya amaliyotida bemorlar psixologiyasi, qon kasalliklari bilan bog'liq fobiyalar, fobiya va yatropatiyalar)

18. Kasb kasalliklari (kasb kasalliklari bilan bog'liq psixogen buzilishlar, nerv sistemasi

zaxarlanishi bilan bog'liq psixoemotsiyonal sindromlar, fobiya va yatropatiyalar)

19. Akusherlik va ginekologiya (akusherlik va ginekologiya amaliyotida bemorlar psixologiyasi, klimakterik sindromda psixoemotsiyonal buzilishlar, psevdohomiladorlik, tug'riq bilan bog'liq psixozlar, fobiya va yatropatiyalar).

20. Onkologiya (onkologik kasalliklarda bemorlar psixologiyasi, kanserofobiyalar, yatropatiyalar).

21. Psixiatriya (ruhiy kasalliklarda bemorlar psixologiyasi, reaktiv psixozlar, psixotrop dorilar bilan davolash asoratlari va unda tibbiy-psixologik yordam ko'rsatish tamoiyllari, fobiya va yatropatiyalar).

22. Asab kasalliklari (nevrologik va neyropsixologik statusni tekshirish usullari va ularning tibbiy-psixologik diagnostikada ahamiyati, asab kasalliklarida bemorlar psixologiyasi, neyropsixologik sindromlar, psevdonevrologik buzilishlar, fobiya va yatropatiyalar).

23. Otorinilaringologiya (LOR a'zolari kasalliklarida bemorlar psixologiyasi, prozopalgiiyalar, fobiya va yatropatiyalar).

24. Stomatologiya (stomatologik kasalliklarida bemorlar psixologiyasi, prozopalgiiyalar, fobiya va yatropatiyalar).

25. Klinik farmakologiya (psixogen buzilishlarni davolashda farmakoterapiya, psixotrop dorilar farmakodinamikasi va farmakokinetikasi, ularning asoratlari, polipragmaziya bilan bog'liq psixoemotsiyonal buzilishlar, fobiya va yatropatiyalar).

1.7. Na'zorat turlari

1. **Joriy na'zorat – seminar** mashg'uloti mavzusi bo'yicha suhbat va testlarni yechish shaklida o'tkaziladi (3 ta baho – bilimi, faolligi, test natijasi), rotatsiya bo'yicha kunlik amaliy ko'nikmalarni bajarishga qarab baholanadi.
2. **Oraliq na'zorat** – fan bo'yicha har bir bobni tugatgandan keyin suhbat va testlarni yechish shaklida o'tkaziladi (3 ta baho – bilimi, faolligi, test natijasi), rotatsiya tugatgandan so'ng egallagan amaliy ko'nikmalarni bajarishga qarab baholanadi.
3. **Yakuniy na'zorat** – har semestr yakunida suhbat va testlarni yechish shaklida o'tkaziladi.
4. **Yakuniy davlat attestatsiyasi** – magistrlik dissertatsiyasi himoyasi va test sinovlari shaklida o'tkaziladi.

1.8. Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogic texnologiyalar

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob shaklida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogic texnologiyalardan va multimediya vositalaridan foydalanish, magistrnlarni klinik fikrlashga undaydigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, talabalar bilan individual ishlash, erkin muloqat yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

Magistraturada "Tibbiy psixologiya" fanini o'qitishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avva'lo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashuv nazarda to'tilganadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyiligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi,

yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dia'logik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish usuli ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtiradi. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini ijodiy tarzda qo'llanilishi dialektik mushohadani shakllantiradi va rivojlantiradi natijada talabani mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vosita va usullarini qo'llash – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dia'log, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, oraliq, joriy va yakuniy na'zorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va talabaning birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning na'zorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida preparatlar diagnostikasi va test topshiriqlari yordamida tinglovchilarning bilimlarini baholash.

“Umumiy tibbiyot psixologiyasi” fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, o'rgatuvchi kompyuter dasturlaridan foydalaniladi, mavzular bo'yicha tarqatma materiallardan tayyorlanadi. Tabalar bilimni baholash og'zaki, kompyuterli test shakllarida amalga oshiriladi.

1.9. Kasbiy faoliyat turlari

davolash-profilaktik:

- bemorlarda psixogen va psixosomatik kasalliklarini aniqlash va (kam invaziyali usullarni qo'shib) tibbiy-psixologik, shu jumladan tezkor yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan to'la hajmdagi ko'nikmaga ega bo'lgan yuqori malakali tibbiy psixolog sifatida mustaqil amaliy faoliyat ko'rsatish;

- ko'p tarqalgan psixogen buzilishlar va psixosomatik kasalliklarini kamaytirish maqsadida psixogigiyena va psixoprofilaktika tadbirlarini amalga oshirish.

ilmiy-tadqiqot va eksperimental:

- psixogen buzilishlar hamda psixosomatik kasalliklar diagnostikasi, psixofarmakoterapiyasi va profilaktikasida yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va izlanish, o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalarini tahlil qilish, umumshtirish va joriy qilish;

- asosiy psixogen buzilishlar va psixosomatik kasalliklarning tarqalishini baholash va xatarli omillarini aniqlash uchun epidemiologik tekshiruvlarni amalga oshirish, shuningdek ularning salmog'ini kamaytirish uchun profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish;

- psixogen buzilishlar va psixosomatik kasalliklarda ayrim patologik jarayonlarni

modellash va patogenezi o'rganish.

pedagogik:

- tibbiyot OTM larida pedagogik faoliyatni amalga oshirish.

tibbiy-ijtimoiy:

- psixogen buzilishlar va psixosomatik kasalliklarda bemorlarning ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiyasi bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish, ularning hayot tarzini yaxshilash.

tashkiliy-uslubiy:

- shifokor-mutaxassislar bilan psixogen buzilishlar va psixosomatik kasalliklar diagnostikasi va davolashdagi yangi texnologiyalar bo'yicha tematik va metodik seminarlar va konsultatsiyalar o'tkazish.

mamuriy-boshqaruv:

- O'zbekiston Respublikasi SSV tizimidagi umumiy yoki ixtisoslashgan har xil tashkilotlarga mamuriy rahbarlik qilish, ilm va fan Davlat qo'mitalarida ishlash.

2.O'qish jarayonini tashkil qilish

2.1. Dastur direktorining majburiatlari:

- Dastur akkreditatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy ishlarni qilib borish, shuningdek Sog'liqni Saqlash Vazirligi hay'ati uchun zarur bo'lgan barcha xujjatlarni o'z vaqtida taqdim etish.
- Qabul qilingan standartlarga muvofiq o'quv jarayoni bilan bog'liq bo'lgan barcha tashkiliy ishlar bo'yicha masalalarni yechish. O'quv jarayonini material-texnik ta'minoti va o'qitish personalni tarkibiga institutning malakali va tajribali xodimlarini tanlash va tayinlash. Bunda shunday sharoitlarni yaratilishi kerakki, xodimlar uchun pedagogik va trenerlik faoliyati moddiy rag'batlantirish hamda kelgusida yuksak lavozimlarni egallash mumkinligi kabi imkoniyatlarni berishi kerak. Bu esa xodimlarni tanlov asosida qabul qilishga sharoit yaratadi.
- O'quv jarayoni bilan bog'liq barcha xujjat va hisobotlarni olib borish.
- Magistrlar faoliyatini muntazam na'zorat qilish (joriy, oraliq, yakuniy va b.q.) olib borish. Shuningdek, magistrning nazariy bilimi, amaliy ko'nikmalari, ilmiy ishi, chet tillarini o'rganish darajasi va boshqalarni na'zorat qilish.
- Magistrni individual baholash va ovoza qilish yo'li bilan magistr orasida raqobat yaratilishiga etarli ahamiyat berish. Bunda: eytakchi va faol magistrni moddiy rag'batlantirish, qoloqlarini esa jarima qilish, kerak bo'lgan hollarda o'qishdan chetlatish choralarini qo'llash kabi usullarni imkon qadar tadbir qilish.
- Magistrni normal o'qish va ishlashi uchun yetarli sharoitlarni yaratish (shuningdek, ularni ish o'rinlari, forma va boshqalar bilan ta'minlash). Magistrni o'qishi jarayoni sifatiga ta'sir etadigan maishiy, shaxsiy va boshqa muammolarni yechishda yordam berish.
- Anonim anketalash yo'li bilan fakultet faoliyati va dasturini baholash hamda na'zorat qilish.
-

2.2. Moderator va trenerlar majburiatlari:

- Direktor rahbarligi ostida mazkur institut dasturini kundalik bajarilishini na'zorat qilish. Kelgusida o'quv jarayoniga jalb qilingan barcha xodimlar mutaxassis sifatida sertifikatlangan va litsenziyalangan bo'lishlari kerak.

- Xar bir seminar darslar maqsadi va mazmuni aniqlangan va shakllangandan (dastur direktori bilan birgalikda) so'ng, moderatorlar o'quv darsi rejasini tuzadilar, zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxatini aniqlaydilar, slaydlar va boshqa kerakli demonstrativ materiallar tayyorlaydilar, seminarlar uchun savollarni va test na'zoratini o'tkazish uchun kompyuter dasturlarini tuzadilar. (Boshlang'ich bosqichda yozma shaklda test na'zoratini o'tkazishga ruxsat etiladi). O'quv jarayonida kerakli materiallar dastur direktori bilan maslahatlashib, oxirgi varianti qabul qilinadi. Xar bir mavzuga oid test savollari xalqaro talablarga mos kelishi kerak.

- Xar bir konkret rotatsiya uchun maqsad va vazifalari aniqlangandan va shakllangan so'ng (dastur direktori bilan birgalikda) hamda amaliy ko'nikmalar ro'yxati tuzilgandan so'ng, a'lohida rotatsiya trenerlari amaliy mashg'ulotlar rejasini shunday tuzadilarki, magistrning manipulyatsiyalar, muolajalar va operatsiyalar bajarilishida shaxsiy qatnashish foizi asta-sekin ortib borishi kerak. Ko'rsatilgan rejalar xam dastur direktori bilan tasdiklarishi kerak. Xar oy va rotatsiya so'ngida rotatsiya trenerlari magistrlar ishlariga baho beradilar hamda yakuniy tavsifnoma tayyorlaydilar.

Umuman olganda o'quv dasturini tadbiiq qilishda pedagog-ustozlarning faoliyati, trener va direktorlar boshchiligida magistrning davolash ishlarida qatnashish darajasiga qarab baholanadi.

Magistrlarning majburiyatlari va huquqlari

Majburiyatlari:

- Magistrning asosiy majburiyati bo'lib, dasturda ko'rsatilgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni egallash.
- Magistrlar kundalik bajariladigan ishlarni aks ettiradigan yozuvlarni olib borish (a'lohida rotatsiyalarda egallagan amaliy ko'nikmalar, navbatchilik va b.). Bunda rotatsiya trenerlari tasdiqlangan holda, magistrning qatnashish foizi % larda ko'rsatilishi kerak.
- Har oyda va a'lohida rotatsiyalar so'ngida trener imzolagan shaklda dastur direktoriga joriy va yakuniy hisobotlarni taqdim etish.
- Barcha ezuvlar, rejalar, hisobotlar, raportlar, tavsifnomalar hamda baho, qaydlar, dastur direktorining magistrga bildirilgan noroziliklari aks ettirilgan boshqa xujjatlar xronologik tartibda a'lohida fayllarda to'planib, magistraturada o'qishi muddati tugaguncha saqlanishi kerak. Yuqori tashkilotlar tomonidan so'ralganda, ularni taqdim etish; magistr sertifikatlangandan va litsenziyalangandan so'ng esa institut arxiviga topshirish kerak.
- Magistrlar o'quv seminarlarida faol qatnashishi shart, chunki ularning nazariy bilimlaridan tashqari davomatiga xam a'lohida etibor beriladi va baholanadi.
- Tasdiklangan reja bo'yicha magistrlar kompyuter testi bo'yicha joriy va yakuniy na'zoratdan utdilar.
- Magistrlar klinikada haftada bir marta navbatchilikda turishadi va navbatchilikda bajargan ishlari tugrisida ertalabki anjumanda axborot berishadi va yazma bayonnoma yozishadi. Ushbu bayonnomaga kura magistr navbatchilikdagi ishlarda qatnashishi ulushi kurstiladi va masul navbatchi tomonidan imzolanadi
- Magistrlar xar kungi anjumanlardan tashqari ilmiy-amaliy anjumanlar, aprobatsiyalar, seminarlar va boshqa ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etishi lozim.
- Magistrlar o'zlarining chet tili bo'yicha bilimlarini oshirib borishi shart.

Huquqlari:

- magistr hafta mobaynida bir kun dam olish huquqiga ega;
- magistr o'quv yili mobaynida 4 haftalik to'lanadigan ta'tilga chiqish huquqiga ega;
- magistr 24 soat ish kuni davomida yoki navbatchilik davomida dam olish huquqiga ega.

2.4. O'quv bazalari ta'minoti

Magistraturada "Tibbiy psixologiya" mutaxassisligidan TTA davolash fakultetining asab kasalliklari kafedrasida, ruhiy kasalliklar kafedrasida, psixonevrologik dispanserlarda, ilmiy-tibbiy markazlarda o'qitiladi.

Auditoriyalar soni - 3 (120 m²), mebel, slaydlar komplekti, disklar va videofilmlar to'plami bilan taminlangan 3 nafar kompyuter, darsliklar va o'quv qo'llanmalari, tibbiy jurnallar bilan ta'minlangan kutubxona.

Kafedra klinikasi koykalari soni 80 ta. Bazada o'uyidagi bo'limlar mavjud: psixosomatik tibbiyot bo'limi, nevrologiya, psixiatriya, psixonevrologik dispanser, konsultativ poliklinika va

terapiya bo'limlari. TTA I klinikasi hududida joylashgan tibbiy markazlar, xususiy klinikalar.

Shunday qilib "Tibbiy psixologiya" mutaxassisligidan magistralar zamon talablariga mos bo'lgan yirik tibbiyot muassasalarida o'qitiladi.

2.5. Mutaxassislik fanlari bloki bo'yicha soatlar hajmi

№	Blok nomi	O'quv yuklamasi, soatlarda		
		Umumiy yuklama hajmi	Auditoriya seminar mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim
1	Seminar mashg'ulotlari			
1.1	Umumiy tibbiyot psixologiyasi	536	420	116
1.2	Xususiy tibbiyot psixologiyasi	940	560	380
	Jami	1476	980	496

3. Tematik bloklar bo'yicha seminar mashg'ulotlar mavzulari

№	Mavzular	O'quv yuklamasi, soatlarda		
		Umumiy yuklama hajmi	Auditoriya seminar mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim
1	2	3	4	5
I. Tematik bo'lim. Umumiy tibbiyot psixologiyasi				
1.	1-o'quv yili			
1.1.	Tibbiyot psixologiyasi fani va uning asosiy vazifalari. Psixologiyaning tibbiyotda tutgan o'rni. Tibbiy psixologiyaga oid klassik va zamonaviy ta'limotlar.	13	10	3
1.2.	Nerv sistemasi tuzilishi va funksiyonal anatomiyasi	34	26	8
1.3.	Bilish jarayonlari	100	80	20
1.4.	Hissiyot va stress	34	26	8
1.5.	Shaxs. Temperament va xarakter	54	42	12
1.6.	Oyila psixologiyasi	34	26	8
1.7.	Tibbiy amaliyotda psixodiagnostika	85	68	17
1.8.	Funksional diagnostika usullari	54	42	12
1.9.	Somnologiya	20	16	4
1.10.	Vegetologiya	20	16	4
1.11.	Psixogigiyena	34	26	8
1.12.	Psixoprofilaktika	34	26	8
1.13.	Bolalar va o'smirlar psixologiyasi	20	16	4
	Jami:	536	420	116

Seminar mashg'ulotlarini o'tkazish tartibi

Seminar mashg'ulotlari tasdiqlangan reja asosida o'tkaziladi va magistrlar bilimini na'zorat qilishning reyting tizimi asosida baholanadi.

Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik konspektlar yozish, sxema, jadval, o'quv adabiyotlari va monografiyalar hamda tezislarni ko'rib chiqish va tematik bemorning kasallik tarixi asosida muhokama qilish bilan ko'riladi.

Dolzab mavzulardan seminar mashg'ulotlarining ayrim savollari bir yoki bir-necha magistr ishtirokida ko'rgazmali materiallarni qo'llash orqali tayyorlanadi.

4. SEMINAR MASHG'ULOTLARI REJASI

I SEMESTR

06.09.19

Seminar 1/1

TIBBIYOT PSIXOLOGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI. PSIXOLOGIYANING TIBBIYOTDA TUTGAN O'RNI. KLASSIK VA ZAMONAVIY TA'LIMOTLAR. VRACH-BEMOR-HAMSHIRA KONSEPSIYASI.

Davomiyligi – 6s.

Tibbiyot va psixologiya. O'zbekistonda tibbiyot psixologiyasi rivojlanishi. Psixologiyaning tibbiyotda tutgan o'rni. Miya va ruhiy jarayonlarga oid baxs-munozarar. Tibbiyot psixologiyasi bo'limlarining shakllanishi. Vrach-bemor-hamshira uchligi.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

10.09.19

Seminar 1\2

TIBBIYOT PSIXOLOGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI. PSIXOLOGIYANING TIBBIYOTDA TUTGAN O'RNI. KLASSIK VA ZAMONAVIY TA'LIMOTLAR. VRACH-BEMOR-HAMSHIRA KONSEPSIYASI.

Davomiyligi – 6s.

Tibbiyot psixologiyasiga oid klassik va zamonaviy ta'limotlar. Frans Gall ta'limoti. Karl Yaspers, Emil Krepelin, Ernst Krechmer, Zigmund Freyd kabi olimlarning tibbiy psixologiyaga oid qarashlari. Bugungi kun tibbiyot psixologiyasi.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

13.09.19

Seminar 2/1

NERV SISTEMASI TUZILISHI VA FUNKSIYONAL ANATOMIYASI

Davomiyligi – 6s.

Nerv sistemasining tuzilishi va funksiyonal anatomiyasi. Markaziy va periferik nerv sistemasi. Bosh miya va orqa miya. Reflektor faoliyat. Shartli va shartsiz reflekslar. Afferent va efferent sistemalar. Miyacha va koordinatsiya.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

17.09.19

Seminar 2/2

NERV SISTEMASI TUZILISHI VA FUNKSIYONAL ANATOMIYASI

Davomiyligi – 5s.

Bosh miya – ruhiyat markazi. Bosh miyaning funksiyonal anatomiyasi, funksiyonal sistemalar topografiyasi. Proeksion, komissural va assotsiativ yo'llar. Limbikoretikular kompleks. Sinapslar faoliyati.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

20.09.19

Seminar 2/3

NERV SISTEMASI TUZILISHI VA FUNKSIYONAL ANATOMIYASI

Davomiyligi – 6s.

Neyrotransmitterlar. Gipotalamo-gipofizar sistema va neyroendokrin faoliyat.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

24.09.19

Seminar 2/4

NERV SISTEMASI TUZILISHI VA FUNKSIYONAL ANATOMIYASI

Davomiyligi – 6s.

Analizatorlar. Nerv sistemasining integrativ funksiyalari. Po'stloq va po'stlog'osti tuzilmalarining analitik-sintetik faoliyati. Birlamchi va ikkilamchi signal sistemalari. Ko'ruv, eshituv, hid va ta'm bilish, harakat, umumiy sezgi analizatorlarining anatomo-fiziologik tuzilishi. Assotsiativ markazlarning ishlash tamoyili.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

27.09.19

Seminar 2/5

NERV SISTEMASI TUZILISHI VA FUNKSIYONAL ANATOMIYASI

Davomiyligi – 5s.

Vegetativ nerv sistemasining anatomo-funksiyonal hususiyatlari. Simpatik va parasimpatik nerv sistemasi. Odamlarning simpatik va parasimpatik (vagotonik) ustuvorlikka qarab tasniflanishi. Simpatikotoniklar va vagotoniklar.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

04.10.19
Seminar 3/1
BILISH JARAYONLARI
Davomiyligi – 6s.

Sezgi a'zolari va turlari. Ekstroreseptiv, propriyoreseptiv va vitseral sezgi. Somatosensor munosabatlar. Sezgi analizatorlari va ularning anatomo-fiziyologik hususiyatlari. Sezgi va reflektor jarayonlar. Somatosensor signallar. Oddiy va murakkab sezgilarning ruhiyat shakllanishidagi ahamiyati. Sezgi va tashqi muhit.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

08.10.19
Seminar 3/2
BILISH JARAYONLARI
Davomiyligi – 5s.

Sezgi fiziologik mexanizmlari. Og'riq va uning neyrokimiyoviy mexanizmlari. Og'riq psixologiyasi. Shartli reflektor fayoliyat.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

11.10.19
Seminar 3/3
BILISH JARAYONLARI
Davomiyligi – 6s.

Sezgi buzilishiga olib keluvchi kasalliklar. FunkSIONAL va organik tipdagi sezgi buzilishlari. Anesteziya, gipesteziya, giperesteziya, paresteziya, analgeziya, giperpatiya, astereognoziya.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

15.10.19
Seminar 3\4
BILISH JARAYONLARI
Davomiyligi – 5s.

Idrok fiziologik mexanizmlari. Birlamchi idrok. Idrok va uning asosiy xususiyatlari. Qy'rquv orqali idrok etishning bosh miyada aks ettirilish mexanizmlari. Idrok shakllanishida assotsiyativ markazlar ahamiyati. Idrok va dominant munosabatlar.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

18.10.19
Seminar 3/5
BILISH JARAYONLARI
Davomiyligi – 6s.

Idrok patologiyasi. Gallyutsinatsiya, illyuziya, depersonalizatsiya, derealizatsiya, anozognoziya.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

22.10.19

Seminar 3/6

BILISH JARAYONLARI

Davomiyligi – 5s.

Diqqat xaqida umumiy ma'lumotlar. Diqqat neyrofiziyologik, biyogenetik va neurokimiyoiviy mexanizmlari. Diqqat o'tkirligi va tezligi tushunchalari. Diqqat patologiyasi: Parishonxotirlik.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

25.10.19

Seminar 3/7

BILISH JARAYONLARI

Davomiyligi – 6s.

Xotira psixologiyasi va fenomeni. Xotira jarayonini ta'minlashda neurotransmitterlar o'rni.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

29.10.19

Seminar 3/8

BILISH JARAYONLARI

Davomiyligi – 5s

Xotiraning kortikal topografiyasi. Xotira analizatorlari. Axborotlarni eslab qolishda gippokampning ahamiyati.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

01.11.19

Seminar 3/9

BILISH JARAYONLARI

Davomiyligi – 6s

Xotira buzilishiga olib keluvchi patologik holatlar va kasalliklar. Modal-spetsifik va modal-nospetsifik tipdagi xotira buzilishlari. Amneziya, giperemneziya, konfabulyatsiya (soxta xotira), psevdoreminitsensiya.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

05.11.19

Seminar 3/10

BILISH JARAYONLARI

Davomiyligi – 5s

Tafakkur xaqida umumiy ma'lumotlar. Tafakkurning fiziologik, genetik va biyokimiyoviy mexanizmlari. Fikrlash jarayoni va neurotransmitterlar.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

08.11.19

Seminar 3/11

BILISH JARAYONLARI

Davomiyligi – 6s

Taffacur jarayoni va neurotransmitterlar. Xotira va tafakkur. Tafakkur va aql. Tafakkur va jamiyat. Tafakkur psixologiyasi.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

12.11.19

Seminar 3/12

BILISH JARAYONLARI

Davomiyligi – 5s.

Tafakkur buzilishiga olib keluvchi patologik holatlar va kasalliklar. Tafakkurning tug'ma va orttirilgan buzilishlari. Oligofreniya va uning bosqichlari: debillik, imbetsillik, idiyotiya. Demensiya. Pseudodemensiya.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

15.11.19

Seminar 3/13

BILISH JARAYONLARI

Davomiyligi – 6s

Intelekt va intellektual operaciyalar. Autism kasallikning rivojlanish mexanizmlari. Autism kasalligida bemorlarni jamiyatga qo'shish, suxbat olib boorish qoidalari.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

19.11.19

Seminar 3/14

BILISH JARAYONLARI

Davomiyligi – 6s

Ong. Umumiy ma'lumotlar. Ong ontogenezi. Ong va ruhiy jarayonlar. Ong va jamiyat. Bilish jarayonlarining ong rivojlanishidagi ahamiyati. "Maugli sindromi"

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

22.11.19

Seminar 3/15
BILISH JARAYONLARI
Davomiyligi – 6s

Ongning psixotik buzilishlari. Somnambulizm. Obnubulyatsiya. Deliriya. Oneyroid. Amensiya. Depersonalizatsiya va b.q. Ongning nopsixotik buzilishlari. Somnolensiya (uyqu bosishi). Sopor. Koma. Sinkope va b.q. Ongning psixotik va nopsixotik buzilishiga olib keluvchi patologik holatlar va kasalliklar. Ongni psixologik, neyropsixologik va nevrologik tekshirish usullari. Sopor va koma darajasini aniqlash uchun Glazgo shkalasi.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

26.11.19
Seminar 4/1
HISSİYOT VA STRESS
Davomiyligi – 6s

Hissiyot xaqida umumiy ma'lumotlar. Hissiyotning neyro- va psixofiziologik hamda biyokimyoviy mexanizmlari. Hissiyot uchun mas'ul tuzilmalar. Limbik sistema va hissiyot. Neokorteks va hissiyot. Serotonin va boshqa neurotransmitterlar. Vegetativ nerv sistemasi va hissiy reaksiyalar. Hissiyot va neuroendokrin sistema. Hissiyot psixologiyasi.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

29.11.19
Seminar 4/2
HISSİYOT VA STRESS
Davomiyligi – 6s

Motivatsiya tushunchasi. Uning hissiyot bilan bog'likligi. Demotivatsion sindrom. Motivatsiya oshirish usullari.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

03.12.19
Seminar 4/3
HISSİYOT VA STRESS
Davomiyligi – 6s

Hissiyot buzilishiga olib keluvchi patologik holatlar va kasalliklar. Fiziologik va patologik affekt. Eyforiya. Disforiya. Maniya. Hissiy ambivalentlik. Apatiya. Depressiya. Fobiya.

Adabiyotlar

A-1, 2, 3, 4;

Q-1, 6, 9, 13, 14, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23.

06.12.19
Seminar 4/4
HISSİYOT VA STRESS.
Davomiyligi – 5s

